

Date: 7th February-2026

SAN'AT MUZEYLARIGA TASHRIF ORQALI O'QUVCHILARNING IJODIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI

Ibadullayev Saburjan Egamberganovich

Urganch davlat universiteti. San'at kafedrası o'qituvchisi.

O'zbekiston.Urganch.

saburzani@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida tasviriy san'at ta'limini tashkil etish jarayonida o'quvchilarning ijodiy dunyoqarashini shakllantirish masalalari tahlil qilingan. San'at muzeylariga tashrifni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish orqali o'quvchilarning estetik idroki, tahliliy tafakkuri va shaxsiy ijodiy pozitsiyasini rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Xususan, O'zbekiston Zamonaviy San'at Muzeyi ekspozitsiyalari misolida real san'at muhiti o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirishda muhim pedagogik omil ekanligi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, san'at muzeyi, ijodiy dunyoqarash, estetik idrok, ijodiy muhit, muzey pedagogikasi.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы формирования творческого мировоззрения учащихся в процессе организации обучения изобразительному искусству в общеобразовательных школах. Освещены возможности развития эстетического восприятия, аналитического мышления и личной творческой позиции учащихся путем интеграции посещений художественных музеев в образовательный процесс. В частности, на примере экспозиций Музея современного искусства Узбекистана показано, что реальная художественная среда является важным педагогическим фактором в повышении творческой активности учащихся.

Ключевые слова: изобразительное искусство, художественный музей, творческое мировоззрение, эстетическое восприятие, творческая среда, музейная педагогика.

Abstract: This article analyzes the issues of forming students' creative worldview in the process of organizing visual arts education in general education schools. The possibilities of developing students' aesthetic perception, analytical thinking, and personal creative position through integrating art museum visits into the educational process are highlighted. Specifically, using the example of the exhibitions at the Museum of Contemporary Art of Uzbekistan, it is demonstrated that the authentic art environment serves as an important pedagogical factor in enhancing students' creative activity.

Keywords: visual arts, art museum, creative worldview, aesthetic perception, creative environment, museum pedagogy.

Umumta'lim maktablarida tasviriy san'at darslari o'quvchilarning estetik didini rivojlantirish va ijodiy tafakkurini shakllantirishga xizmat qilishi lozim bo'lgan fanlardan biridir. Biroq real o'quv jarayoni tahlil qilinganda, ushbu maqsad har doim ham to'liq amalga oshmayotgani kuzatiladi. Amaliyotda ko'p hollarda o'quvchilar rasm ishlash jarayonida tayyor namunaga qarab ishlashga, berilgan sxemani takrorlashga yoki



Date: 7th February-2026

o'qituvchi tomonidan oldindan belgilab qo'yilgan yechimdan chetga chiqmaslikka odatlanib qolmoqda. Bunday yondashuv tashqi tomondan tartibli va boshqarilishi oson bo'lsa-da, o'quvchining ichki ijodiy imkoniyatlarini cheklab qo'yadi.

San'at faoliyati mohiyatan shaxsiy idrok, individual kuzatuv va borliqni o'ziga xos tarzda anglashga asoslanadi. Har bir o'quvchi atrof-muhitni turlicha sezadi, ranglar va shakllarni o'z tajribasi hamda hissiy holati orqali qabul qiladi. Agar o'quvchi faqat nusxa ko'chirish bilan cheklansa, u san'atni anglash emas, balki mexanik takrorlashni o'rganadi. Bu holat ijodiy izlanishga bo'lgan qiziqishni pasaytiradi, mustaqil qaror qabul qilish ehtiyojini yo'qotadi va shaxsiy uslubning shakllanishiga to'sqinlik qiladi.

Muammoning yana bir muhim jihati — o'quvchilarning real san'at muhiti bilan yetarli darajada to'qnash kelmasligidir. Tasviriy san'at darslari asosan sinf xonasida, cheklangan vizual materiallar asosida olib boriladi. Darsliklardagi reproduksiya yoki slaydlar san'at asarining mazmunini to'liq ochib bera olmaydi. Asarning hajmi, fakturasi, ranglar uyg'unligi va tomoshabin bilan bevosita muloqoti o'quvchi uchun yopiq qoladi. Natijada san'at o'quvchi ongida tirik jarayon sifatida emas, balki mavzu yoki topshiriq sifatida qabul qilinadi.

Baholash tizimi ham mazkur muammoni kuchaytiruvchi omillardan biridir. Ko'pincha texnik aniqlik, chiziqlarning to'g'riligi yoki ranglarning "to'g'ri" tanlanganligi asosiy mezon sifatida olinadi. Bunday baholash yondashuvi o'quvchini xatodan qo'rqadigan, xavfsiz va sinovdan o'tgan variantlarni tanlaydigan holatga olib keladi. O'quvchi yangicha fikr bildirishdan, noodatiy yechim sinab ko'rishdan tiyiladi. Natijada tasviriy san'at darslarida ijodiy muhit deyarli yo'qoladi.

Shu sababli muammo faqat metodik kamchiliklarda emas, balki o'quvchining ijodiy muhitdan ajralib qolganidadir. Agar o'quvchi turli qarashlar, uslublar va san'at maktablari bilan tanishmasa, uning ijodiy dunyoqarashi tor doirada shakllanadi. Bu holat tasviriy san'at fanining mazmuni va maqsadiga zid bo'lib, o'quvchini ijodkor shaxs sifatida rivojlantirish imkoniyatlarini cheklaydi.

Tasviriy san'at ta'limida mavjud muammolarni bartaraf etishda san'at muzeylariga tashrifni o'quv jarayonining ajralmas qismiga aylantirish samarali yechimlardan biri hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston Zamonaviy San'at Muzeyida deyarli har oy yangi ko'rgazmalarning tashkil etilishi o'quvchilar uchun doimiy ravishda yangilanib turadigan ijodiy makonni taqdim etadi. Bu holat san'atni bir martalik tadbir emas, balki uzluksiz rivojlanib boruvchi jarayon sifatida idrok etishga imkon yaratadi.

Muзей muhitida o'quvchi san'at asari bilan bevosita muloqotga kirishadi. U ranglarning real ta'sirini, materialning xususiyatini va kompozitsiyaning makondagi o'rnini his qiladi. Bu tajriba sinf xonasidagi darsdan tubdan farq qiladi. Asar qarshisida turgan o'quvchi muallifning qarorini, ifoda vositalarini va mazmuniy yo'nalishini anglashga harakat qiladi. Natijada tomosha qilish jarayoni fikrlash va tahlil qilish jarayoniga aylanadi.

O'zbekiston Zamonaviy San'at Muzeyidagi ko'rgazmalar turli avlod va yo'nalish vakillarining ishlari bilan tanishish imkonini beradi. An'anaviy tasviriy san'at bilan bir qatorda zamonaviy eksperimental ishlarning namoyish etilishi o'quvchilarga san'atda yagona qolip yoki yagona to'g'ri yo'l mavjud emasligini amalda ko'rsatadi. Bu esa



Date: 7th February-2026

o'quvchilarning tasavvurini kengaytiradi va ijodiy erkinlikka bo'lgan ichki ehtiyojni kuchaytiradi.

Muzey tashriflarining yana bir muhim tomoni — rassomlar bilan jonli muloqot imkoniyatidir. Ko'rgazmalar doirasida o'tkaziladigan uchrashuvlar, suhbatlar va muhokamalar o'quvchilarga san'at ortida turgan mehnat, izlanish va tajriba haqida real tasavvur beradi. Rassomlarning ijodiy yo'li, duch kelgan qiyinchiliklari va qarorlari bilan tanishish o'quvchiga ijod tasodifiy jarayon emasligini anglatadi. Bu esa san'atga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartiradi.



Muzey Xorazm hududida joylashgani bois uning ekspozitsiya tuzilmasida vohaning tarixiy va madaniy merosini aks ettiruvchi alohida Xorazm zali tashkil etilgan. Ushbu zal yoshlar va tashrif buyuruvchilar uchun Xorazmning boy o'tmishini san'at asarlari orqali idrok etish imkonini beradi. Ekspozitsiyada namoyish etilgan asarlar tarixiy voqealar, milliy an'analar, xalqning turmush tarzi

va estetik qarashlarini badiiy obrazlar vositasida ifodalaydi. Natijada o'quvchi tarixni quruq ma'lumotlar yig'indisi sifatida emas, balki vizual va hissiy tajriba orqali anglaydi. Bu holat san'at va tarixning o'zaro uzviy bog'liqligini ochib berib, o'quvchilarning madaniy xotira va milliy o'zlik haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi.

Xorazm ekspozitsiyasida namoyish etilgan rassomlarning ijodiy ishlari hududga xos kolorit va badiiy tafakkurni aks ettirishi bilan ahamiyatlidir. Ushbu asarlar orqali o'quvchilar san'atning nafaqat estetik, balki ma'naviy va tarbiyaviy imkoniyatlarini ham anglay boshlaydi. Rassomlar tomonidan yaratilgan obrazlar tarixiy xotira, mehnat madaniyati va insonning borliq bilan munosabatini ochib beradi. Bu jarayonda o'quvchi tomoshabin bo'lib qolmay, balki ko'rgan asari mazmuni haqida mulohaza yurituvchi subyektaga aylanadi.

Muzeyning O'zbekiston rassomlari zalida esa yurtimizning yetuk va tajribali ijodkorlari asarlari namoyish etilgan bo'lib, bu ekspozitsiya o'quvchilar uchun professional san'at namunalarini tahlil qilish imkonini yaratadi. Ushbu zalda joy olgan haykaltaroshlik va rangtasvir asarlari orqali o'quvchilar shakl, rang, makon va obraz bilan ishlash usullarini kuzatadi. Jumladan, "Farhod" haykali monumental fikrlash va obraz orqali g'oyani ifodalash imkoniyatini ko'rsatsa, raqqosalar tasvirlangan portretlarda harakat, plastika va hissiy holat ustuvorlik qiladi. Manzara janridagi asarlarda esa makon va rang uyg'unligi orqali tabiatni badiiy talqin qilish namoyon bo'ladi.

Alohida ta'kidlash joizki, "Chorraha" asari syurrealizm yo'nalishida yaratilgan bo'lib, unda tushda ko'rilgan tasvirlar va ongosti obrazlari ramziy shaklda ifodalangan. Asarda real makon va mantiqiy bog'lanishlar buzilgan holda, falsafiy mazmun ustuvorlik qiladi. Bunday asarlar o'quvchini tayyor xulosaga olib kelmaydi, aksincha, uni o'ylashga, talqin qilishga va shaxsiy munosabat bildirishga undaydi. Bu holat o'quvchilarda san'atni



Date: 7th February-2026

faqat tashqi ko‘rinish sifatida emas, balki chuqur mazmunli fikrlash vositasi sifatida qabul qilish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Shu tariqa muzeyga tashrif o‘quvchini passiv tomoshabin holatidan chiqarib, faol kuzatuvchi va tahlil qiluvchi shaxsga aylantiradi. O‘quvchi ko‘rgan asarlarini tasviriy san‘at mashg‘ulotlarida esga oladi, yangi yechimlarni sinab ko‘radi va mustaqil qaror qabul qilishga intiladi. Natijada muzey muhiti tasviriy san‘at ta‘limida ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo‘ladi. San‘at asarlari bilan bevosita muloqot qilish o‘quvchilarda estetik did, tahliliy tafakkur va shaxsiy ijodiy pozitsiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, hech kim tajribasiz va mos muhitdan tashqarida turib, o‘z-o‘zidan ijodkor shaxs sifatida shakllanmaydi. Ijod tug‘ma qobiliyat bilangina belgilanmaydi, balki doimiy kuzatuv, ta’sirlanish, solishtirish va izlanish natijasida rivojlanadi. O‘quvchi san‘at bilan faqat sinf xonasi doirasida muloqotda bo‘lsa, uning ijodiy dunyoqarashi cheklangan holda shakllanadi.

San‘at muzeylariga tashrif o‘quvchining estetik idrokida muhim burilish yasaydi. Muzey muhitida u san‘atning turli shakllari, qarashlari va ifoda usullari mavjudligini ko‘radi. Bu esa o‘quvchida san‘atga nisbatan shaxsiy munosabat bildirish ehtiyojini uyg‘otadi. Aynan shu ehtiyoj mustaqil ijodiy faoliyatning boshlanish nuqtasi hisoblanadi.

Muzey tashriflari orqali o‘quvchi san‘atni faqat yakuniy mahsulot emas, balki jarayon sifatida qabul qila boshlaydi. Rassomlarning hayot yo‘li, ijodiy izlanishlari va mehnati bilan tanishish o‘quvchiga muvaffaqiyat ortida katta tajriba va muhit turganini anglatadi. Bu esa uni sabrli bo‘lishga, o‘z ustida ishlashga va ijodiy yo‘lda davom etishga undaydi.

O‘quvchilarni san‘at muzeylariga, xususan, zamonaviy san‘at ko‘rgazmalariga muntazam olib borish tasviriy san‘at ta‘limining muhim tarkibiy qismiga aylanishi lozim. Bunday tashriflar orqali o‘quvchilar nafaqat ijodiy ko‘nikmalarini, balki estetik didini, tarixiy va madaniy tafakkurini ham rivojlantiradi. Ijodiy muhitga tushgan o‘quvchi san‘atni o‘rganmaydi, balki uni anglaydi. Aynan muhit bilan to‘qnashuv o‘quvchini ijodiy shaxs sifatida shakllantiruvchi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Богоявленская Д.Б. Интеллектуальная активность и творчество. – Москва: Педагогика, 2009.
2. Булатов С. Тасвирий ва амалий санъат асарларини фалсафий- психологик тахлили. - Т., 2010 -62 б.
3. Кузин В.С. Психология живописи : учеб. пособие для вузов. М., 2005.
4. Rostovtsev N. N. Maktabda tasviriy san‘atni o‘qitish metodikasi: talabalar uchun darslik. - 3-nashr, qo‘shimcha va qayta ishlangan – M.: AGAR, 2000.
5. Egamberganovich I. S. Хива naqqoshlik san‘ati ustalarning merosi va hunarlarini yoshlarga o‘rgatish orqali ularning ma’naviyatini shakllantirish //Sustainability of education, socio-economic science theory. – 2024. – T. 2. – №. 14. – С. 84-87.

Date: 7th February-2026

6. Ibadullayev Saburjan Egamberganovich. Badiiy ijodni shaxsning estetik madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyati. The theory of recent scientific research in the field of pedagogy: a collection scientific works of the International scientific online conference (21st October, 2024)–INDIA, New Delhi: "CESS",2024.Part26.25-27b. <https://interoncof.com/index.php/india/issue/view/>
7. Saburjan Ibadullayev. Umumta'lim maktablari o'quvchilarining tasviriy san'at darslarida ijodiy mustaqilligini rivojlantirish. Badiiy ta'lim va pedagogika.-2024.№ 4. ISSN 3030-3869. 74-79 b.
8. Ibadullayeva N.E. Talabalarning badiiy va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda rangtasvirdan mustaqil badiiy va ijodiy faoliyatni tashkil etishning ahamiyati. Integratsiyalashgan ta'lim va tadqiqotlar jurnali. Journal of integrated education and research. ISSN 2181-3558.VOLUME 2, ISSUE 6.COLLECTION B JUNE 2023. 42-46 betlar. <https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/issue/view/29/50>
9. Ибадуллаева, Н. 2024. Развитие художественно-творческих компетенций студентов изобразительного художественного образования. *Общество и инновации*. 5, 10/S (окт. 2024), 55–62. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss10/S-pp55-62>.
10. Ibadullayeva Nigora Egamberganovna. Tasviriy san'at ta'limida axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY: a collection scientific works of the International scientific online conference (21st October, 2024) – INDIA, New Delhi : "CESS", 2024. Part 26 – 47p. <https://interoncof.com/index.php/india/issue/view/81>.

